

Sattorova Dilshoda Yuldashevna
Qo'qon davlat universiteti
fizika va astronomiya
kafedrasi katta o'qituvchisi
sattorovadilshoda78@gmail.com

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHI SHAXSINI TARBIYALASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarining har tomonlama tarbiyalashda zamonaviy pedagogik texnologiyaning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Maqolada interfaol usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompetensiyaga yo'l qo'yilgan ta'lim shakllari hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, ijtimoiy faollik va ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni boshqarishdagi ta'siri tahlil qilingan. Taraqqiyot zamonaviy pedagogik texnologiya o'quvchi shaxsining tarbiyaviy rivojlanishida muhim omil sifatida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiya, vosita, usul, pedagogik tizim, pedagogik texnologiya, o'quvchi shaxsini tarbiyalash, interfaol metodlar, shaxsga yo'ilgan ta'lim, kompetensiya, motivatsiya, ijodkorlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ВОСПИТАНИИ ЛИЧНОСТИ УЧЕНИКА

Аннотация. В статье рассматриваются роль и значение современных педагогических технологий в комплексном образовании обучающихся. Анализируется влияние интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, компетентностных форм обучения и личностно-ориентированного образования на развитие самостоятельности мышления, креативности, социальной активности и духовно-нравственных качеств обучающихся. Развитие современных педагогических технологий рассматривается как важный фактор образовательного развития личности обучающегося.

Ключевые слова: педагогическая технология, инструмент, метод, педагогическая система, педагогическая технология, развитие личности учащегося, интерактивные методы, персонализированное образование, компетентность, мотивация, креативность, духовно-нравственное воспитание.

THE IMPORTANCE OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE STUDENT'S PERSONALITY

Annotation. This article examines the role and importance of modern pedagogical technologies in the comprehensive education of students. It analyzes the impact of interactive methods, information and communication technologies, competency-based learning, and student-centered education on the development of independent thinking, creativity, social engagement, and spiritual and moral qualities in students. The development of modern pedagogical technologies is viewed as an important factor in the educational development of the student's personality.

Keywords: Pedagogical technology, tool, method, pedagogical system, pedagogical technology, student development, interactive methods, personalized education, competence, motivation, creativity, spiritual and moral education.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatimiz rivojlanishida pedagogik texnologiya o'zining aniq belgilab olingan maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiq etayotgan muammolarning

mantiqiy asoslari, rivojlanish qonuniyatlari, o'zining tayanch metodologiyasiga ega bo'lgan pedagogika fanining muhim tarmog'i sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik texnologiya ilmnining ustuvor sohasi sifatida davlat va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan uzluksiz ta'lim tizimini yangidan - yangi pedagogik nazariyalar negizida vujudga kelgan ta'lim modellari va texnologiyalari bilan qurollantirish asosida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy ta'limda axborot texnologiyalarining o'rni va ularni qo'llash metodikasi bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar, maqolalar va monografiyalar mavjud. Axborot texnologiyalarining ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida bir qator olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar ta'lim metodikasining yangi usullarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonining sifatini oshirish va o'quvchilarga individual yondashuvni ta'minlashda ATning o'rnini ko'rsatib berdi. Dunyoning bir qator mamlakatlarida axborot texnologiyalarining ta'limda qo'llanilishi bo'yicha keng ko'lamlı tadqiqotlar o'tkazilgan. Masalan, S. Y. Shishov o'zining "Ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish" nomli tadqiqotida, AT vositalarini qo'llash orqali o'qituvchilarning o'quv jarayonini boshqarish imkoniyatlarini tahlil qiladi. U shuningdek, AT tizimlarining ta'lim jarayonidagi motivatsion va pedagogik ahamiyatini yoritgan. I. M. Pervichko esa ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarining integratsiyasi bo'yicha o'zining amaliy yondashuvlarini taqdim etgan, bu esa nafaqat ta'lim sifatini, balki ta'lim resurslarini samarali boshqarishni ham ta'minlaydi. L. B. Morozova "Innovatsion ta'lim texnologiyalari" nomli maqolasida, ta'limda axborot texnologiyalarining innovatsion metodlar bilan integratsiyasi muhim ekanligini ta'kidlaydi. U o'z tadqiqotlarida, multimedıya vositalari, interaktiv doskalar va o'yinlashtirilgan ta'lim metodlarini samarali qo'llash orqali o'quvchilarning o'quv faoliyatini yanada faol va samarali qilish mumkinligini ko'rsatgan. A. V. Frolova o'z maqolasida onlayn ta'lim platformalarining o'quvchilarga bilim olishdagi yangi imkoniyatlar yaratishini tahlil qilgan. Uning fikricha, onlayn o'quv platformalari faqat ta'lim sifatini oshirib qolmay, balki o'quvchilarga o'z o'qish rejimini mustaqil ravishda boshqarish imkonini yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hammamizga ma'lumki axborot taqdim etilish shaklidan qat'iy nazar shaxs, predmet, dalil, voqea, hodisa va jarayonlar haqidagi ma'lumotlar to'plamidir. Axborot texnologiyalari esa axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar hisoblanadi.

Natijalar va ularning tahlili. Pedagogik texnologiya o'quvchi shaxsining yosh xususiyatlari va rivojlanish dinamikasini hisobga olgan holda ta'lim texnologiyalarini tanlaydi. Tanlab olingan muayyan ta'lim texnologiyalari doirasida o'quvchilarga turli darajadagi tushunchalarni hamda mujassamlashtirgan bilimlarni taqdim etish yo'llarini, shakl va vositalarini taklif qiladi. Muayyan bir pedagogik texnologiyani nazariy jihatdan asoslaganda, pedagogik texnologiya o'quvchi hamda o'qituvchining jonli faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga, uning erkin fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutmog'i lozim. Ta'lim jarayoniga tatbiq qilinadigan har qanday pedagogik texnologiya, uning komponentlarining ta'lim mazmuni, o'quv dasturi yoki darslik, o'qituvchi faoliyati orqali o'tishidan qat'iy nazar, o'quvchining jonli tarzidagi erkin va ijodiy faoliyatini jadal rivojlantirishga xizmat qilishiga erishish talab qilinadi. Bunda pedagogik texnologiyalar, birinchi navbatda, har bir o'quvchining boshqa o'quvchilar, dars materiallari hamda o'qituvchi (pedagog) bilan erkin tarzda muloqot qilishini, fikr almashishini ta'minlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar pedagogik amaliyotning o'quvchi shaxsiga qonunlar majmuini, tabiat va jamiyat hodisalarini, kishilik madaniyati va axloq - odobini, muayyan fan asoslarini tanituvchi shakli sifatida namoyon bo'lishi lozim. Bu sohada nazariy jihatdan asoslangan, har tomonlama sinovdan o'tgan hamda aniq amal qiluvchi qonuniyatlarga tayanish maqsadga muvofiqdir. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati har bir shaxsda mavjud bo'lgan uning ehtiyoji, qiziqishi, iqtidori va imkoniyatlari asosida ularda ijobiy xislat va fazilatlarini shakllantirish, rivojlantirish sanaladi. Bu o'rinda ta'lim mazmuni shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun muhit sanaladi. Shuning uchun ta'lim mazmuni insonparvarlikka yo'naltirilgan gumanistik g'oya va me'yorlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi lozim. Pedagogik munosabatlarni rivojlantirish va demokratlashtirish asosidagi pedagogik texnologiya yakka hokimlik texnologiyasiga tubdan qarshi bo'lib, pedagogik jarayonda

116 hamkorlik, g'amxo'rlik, o'quvchilar shaxsini hurmat qilish, e'zozlash orqali shaxsni rivojlantirish va ijod qilishga qulay muhit yaratadi. An'anaviy ta'limda o'qituvchi (pedagog) ta'lim mazmunining subyekti, o'quvchilar pedagogik jarayonning obyekti deb qaralsa, hamkorlik pedagogikasida o'quvchi o'z o'quv faoliyatining subyekti sanaladi. Shu sababli hamkorlik pedagogikasida yagona ta'lim jarayonining ikkita subyekti hamkorlikda o'quv-tarbiya vazifalarini hal etadi. Pedagogik texnologiya o'quvchilarning o'rganilayotgan soha bo'yicha bilimlarni esga tushirish, jonlantirish yangi bilimni o'zlashtirishga asos bo'ladi deb ko'rsatadi. Bilimlar va tayyorgarlikni aniqlash o'quvchini faollashtirish va bilim o'zlashtirishga ijobiy motivni keltirib chiqaradi. Mavzuni o'rganishga kirishishda erkin suhbat, munozara, aqliy hujum va boshqa shakllarda jonlantirish mumkin.

Xulosa. Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihati – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir. Demak, texnologiya samaradorligi inson o'zining ko'p qirrali tomonlari bilan unda qanchalik to'liq namoyon bo'lyapti, uning psixologik-kasbiy jihatlari, ularning kelajakda rivojlanishi (yoki pasayishi) qanday hisobga olinyapti, degan savollarning yechimiga bog'liq ekan. Shu jihatdan olganda texnologiya shaxsning rivojlanish bosqichlarini loyihalashtirish, tashxislash kabi imkoniyatlarga ham ega bo'ladi. Bu esa pedagogning texnologik jarayon bilan ishlash qobiliyatiga bog'liq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. Salimov, R. T. Raqamli ta'lim va o'quvchilarga individual yondashuv. Pedagogik tadqiqotlar, 8(4), 77-84. 2020
- [2]. Kovalev, A. N. Interaktiv ta'lim vositalari va ularning samaradorligi. Tashkent: Innovatsion ta'lim nashriyoti. 2019.
- [3]. Sattorova, D. "USING CROSSWORD PUZZLES IN PHYSICS LESSONS." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 32-34.
- [4]. Mirzaakhmad, Kurbonov, and Sattorova Dilshoda Yuldashevna. "USE OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING PHYSICS (IN THE EXAMPLE OF ELECTROMAGNETISM)." CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES 3.10 (2022): 119-122.
- [5]. Yuldashevna, Sattorova Dilshoda, and Kurbanov Mirzaaxmad. "EFFECTIVE WAYS OF DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN TEACHING THE DEPARTMENT OF" ELECTRICITY AND MAGNETISM"." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
- [6]. Sattorova, Dilshoda. "USE OF COMPUTER PROGRAMS IN PHYSICS LESSONS." Akademicheskie issledovaniya v sovremennoy nauke 2.6 (2023): 64-69.
- [7]. Sattorova, D., and Sh Jo'martova. "USING MODERN EDUCATIONAL METHODS, DETERMINING STUDENTS' MASTERY LEVEL." Open Access Repository 8.12 (2022): 509-511.
- [8]. Kurbanov, M., and D. Sattorova. "TALABALARNING FIKRLASH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA FIZIKADAN SIFATGA OID MASALALARNING O'RNI." Educational Research in Universal Sciences 1.5 (2022): 95-98.
- [9]. Sattorova, D. "FIZIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI." Conference 11.1 (2023): 235-238.
- [10]. Sattorova, D. "IMPORTANCE OF MODERN EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN TEACHING PHYSICS IN PART OF "ELECTRICITY AND MAGNETISM"." Science and innovation 2.B10 (2023): 214-218.